

MAKTABGACHA TA'LIMDA BOSHQARUV FAOLIYATINI TOG'RI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI

Jamoliddinova Nigina

Puchon universiteti magistranti

Annotatsiya: *Maktabgacha ta'lism - ta'lism bosqichlarining asosiy bo'g'ini bo'lib, bola shaxsi bilan pedagogik muloqotning boshlanishi hsoblanadi. Bu jarayonda pedagogik jarayonni to'g'ri boshqarish juda muhim ahamiyatga egadir. Maqolada maktabgacha ta'lism muassasasida boqaruv faoliyatini tashkil etish bo'yicha ayrim mulohazalar bayon etiladi.*

Kalit so'zlar: *Boshqaruv, rahbar, maktabgacha ta'lism, tarbiyachi, tarbiyalanuvchi, texnologiya, talim.*

Bugungi kunda maktabgacha ta'limga yangi bosqichga olib chiqish, uning sifatini oshirish, ta'limga dasturlarini takomillashtirish, kadrlar malakasini davr talabiga mos ravishda oshirish borasida ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda.

Maktabgacha ta'limga zamon talablaridan kelib chiqqan holda rivojlantirish masalasida muassasa rahbarligiga yetuk kadrlarni tarbiyalash vazifasi ham ko'zda tutiladi. Shu maqsadda maktabgacha ta'lism rahbarlarining malaka oshirish kuslarini sifatli tashkil etish, o'quv dasturlarini takomillashtirish, sohalariga oid dunyo yangiliklaridan xabardor bo'lib borish, muassasani boshqarishda yangicha usullarni qo'llash kabi masalalarga e'tibor qaratish lozim. Rahbar kadrlarning uzlucksiz ravishda o'z ustida ishlab borishlari muhimdir.

Pedagogik texnologiyalarni joriy etish sharoitida maktabgacha ta'lism muassasasida pedagogik jarayonni boshqaruv modellari tuzilib, amalga tatbiq etilmoqda. Maktabgacha ta'lism tashkilotlarining bosh yetakchisi, muhim a'zosi hamda malakali pedagogi va kadri bu albatta rahbar hisoblanadi. Rahbarning asosiy vaifasi maktabgacha ta'lism yoshidagi bolalarni yetuk inson qilib tarbiyalash vazifalarini to'laqonli hal qilish va tashkillashtirishga qaratilgan. Rahbar vazifasi bolalarning maktabgacha ta'lism maskanlarida ta'lism-tarbiya olishlari, pedagogik va gigiyenik talablarga muvofiq ravishda amalga oshirilishi uchun zarur bo'lgan muhit bilan ta'minlanishini va o'z jamoasida ishchanlik ruhiyati, maqsad yo'lida kuchli jamoa tashkil qilishdan iboratdir. Rahbar oz ishiga mas'ulyat bilan yondashishi kerak.

Rahbar qaror va qonunlarga hurmat bilan amal qilgan holda, ijodiy ravishda vazifasini bajaradi. Aql-idrok va siyosiy bilag'onlik, prinsiplilik, unga va uning ishchi kadrlariga qo'yilgan majburyatdir.

Rahbarlik lavozimi o'zining saviyasini har doim yetuk o'rinda tutishi va rivojlantirishi, ozining ustida ongli ravishda ishlab borishi, bilimlarni muntazam oshirib borishi, yurtimiz kelajaki bo'lgan bolalarga yuqori sifatdagi ta'limgartibiya berish nazariyasini mukammal egallash va uni amalda qo'llash, hozirgi vaqtda shu yo'nalishda oldida turgan maqsadlarni va vazifalardan har doim habardor bo'lish, amaliy hamda na'zariy bilimlaridan, faoliyati davomida to'gri foydalanishi lozim. Rahbar dastur-rejalarni, maktabgacha ta'limgartibolarini, me'yoriy hujjatlarni mukammal bilishi va unga amal qilishi kerak.

Maktabgacha ta'limgartibolarining ish mahoratini va umumiy ta'limgartibolarini hamda madaniy yo'nalishdagi bilim darajasini har doim oshirib borishga ma'sul hisoblanadi. Xodimlar darajasini va mutaxassislik darajasini inobatga olgan holda va maktabgacha ta'limgartibolarining manfaatlari asosida, ularning lavozimini oshirib borishni taminlaydi.

Maktabgacha ta'limgartibolarining kadrlar ba'zasini shakllantirib, ular bilan har doim ish olib boradi. Rahbar maktabgacha ta'limgartibolarining muassasida butun faoliyatini, obodonlashtirish ishlariga ham rahbarlik qiladi. Hisob bo'yicha xarajatlarni to'g'ri ajratish, maskanni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash tizimini to'g'ri tashkil qilish, bog'chani ro'yxatdagi bolalar bilan to'Idirish, ta'limgartibiya rejasini tog'ri bajarilishi uchun mas'ul xodimdir. Yozgi sog'lomlashtirish tadbirlari, pedagogik va ishlaydigan kadrlaring bilimi salohiyati, ishga bo'lgan munosabati, ularning bilimini muntazam oshirish ishlarini bo'yicha ma'sul xodim hisoblanadi. Rahbar bolalar hayotini muhofaza qilish va asrash uchun maktabgacha ta'limgartibolarining muassasida to'gri kundalik tartibini, shart-sharoitni yaratadi. Sanitariya qoidalarga amal qilinyotganini nazorat qilib boradi, yong'inga qarshi o'quv tadbirlar o'tkazib boradi.

Maktabgacha ta'limgartibolarining ishlovchi xodimlarini o'z vaqtida oylik maosh olishini ta'minlaydi. Maskanda ishni to'g'ri yurishini nazorat qilib boradi hamda, ishda faol bolgan o'zini yaxshi tamondan korsatgan ishchi-xodimlarni moddiy qo'llab-quvvatlashni amalga oshiradi. Bolalar bog'chasida o'tkaziladigan rekanstruksiya ishlariga bosh rahbardir. Maskanda ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi xodimlar yani xo'jalik mudiri, ombor mudiri, kir yuvuvchi, bog'bon, farrosh, qorovul, elektrik, santexnik bilan yuzma yuz muloqat olib boradi. Ularning ustidan qat'iy nazorat qiladi. Tashkliy-pedagogik jarayonga shular kiradi:

1. Bayram ertakliklarini tashkillashtirish va unga rahbarlik qilish;
2. Ochiq bayram tadbirlarni tashkillashtirish va boshchilik qilish, ochiq tadbirlar va dars jarayonlarni jamoa bo'lib kuzatish, nazorat qilish va ularni tekshirish va muhokama qilish. Bularga misol, ochiq darslar, sayrlarni kuzatish;

3. Xalq ta'limi tomonidan berilgan vazifalar asosida talantli bolalarni ko'rlik-tanlovlarga olib chiqish, yilning eng yaxshi tarbiyachisi, san'at va sport tadbirlarini tashkillashtirish.

Mudiraning ish jarayonidagi rahbarligiga shular kiradi:

- har bir guruhni kuzatish va ta'lim-tarbiyaviy reja asosidagi ishlarni tekshirish, tarbiyachining ish-hujjatlarini ko'rib chiqish va uni tekshirish;

- Guruhning ta'lim va tarbiyaviy rejasini ko'zdan kechirish hamda tashxis daftariniyam ko'zdan kechirishga mas'uldir.

- guruhning kerakli jihozlar yetarlicha ekanini nazorat qilish va yilda bir marotaba umumiy ota-onalar yig'ilishini tashkil qiladi.

Tashkil qilinadigan majlisni ota-onalar qo'mitasi raisi olib boradi yoki ko'maklashadi. Mudira haftada 3 marta ota-onalarni ish joyida qabul qiladi. Bunda ota-onalar tomonidan ba'zi kamchiliklar yoki muommolar muhokama qilinadi va bu muommolar bartaraf etiladi. Rahbarning mahalla qo'mitasi hamda jamoat bilan ish yurutishi tartibi quyidagi yo'llar orqali amalga oshiriladi:

1. Ota-onalar va jamoat yig'ilish tashkil qilish.

2. Ota-onalar universitetlari tashkillashtirish.

Bunda oila markazi hodimlari, olimlar, xalq ta'limidan malakali kadrlar va barcha ota-onalar qatnashadi. Ota-onalar universitetining eng muhim maqsadi bu bolalar tarbiyasi masalalarini ko'rib chiqish uni o'rganish va kamchiliklarga yechim topib uni hal qilish kiradi. Rahbar maktab bilan aloqada bo'lib turgan holda bir yillik reja asosidagi dasturga amal qiladi. Bunda maktabgacha ta'lim maskanining ustuvor vazifalaridan biri bu o'rta ta'lim tomonidan rejallashtirib hamda amalga oshiriladigan tadbirlaridan habardor bo'lishi, bolani o'rta ta'limga tayyorlashi, lotin alifbosini o'rgatish ishlarini olib borilishini nazorat qiladi. Bu maktabgacha ta'lim rahbari va maktab direktorining vazifalari qilib belgilanadi.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkiloti yetakchisi yani rahbarini nafaqat jamoani boshqarish va nazorat qilish, balki ozining ilmi va yetukligi bilan na'muna va o'rnak bo'lishi kerak. Zero, ilgarilari maktabgacha ta'lim tashkilotlari bolalarni ovuntirib o'tradigan oddiy joy bo'lgan. Hozirgi kunda nafaqat nomi balki sifati ham yuqori darajada o'zgarishga qadam tashlandi. Demak, shu zamonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ijobiy imijini shakillantirishda rahbarning boshqaruv o'rni beqiyos hisoblandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Vinogradova N.A., Miklyeva N.V., Tolstikova Yu.V. Maktabgacha ta'lim ta'lim. Terminlar lug'ati / - M.: Ayris-press, 2005.
2. Novikova G.P. Zamonaviy maktabgacha ta'limni boshqarish shartlar: Maktabgacha ta'lim muassasasi rahbari uchun qo'llanma. - M.: Ventana-Graf, 2007.
3. Pozdnyak L. V., Lyaschenko N. N. Maktabgacha ta'limni boshqarish: Darslik. stud uchun qo'llanma. ped. universitetlar. - 2-nashr, Stereotip. M.: "Akademiya" nashriyot markazi.
4. Muhammadiyeva N.Sh., Qodirov U.I. Maktabgacha ta'limda boshqaruviy menejmenti. "Экономика и социум" №12(91)-1 2021.